

SUITSIDAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING YOSHGA DOIR PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Alinazarov Nodirxon Nosirxon o'g'li
Farg'ona davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Suitsidal xulq-atvor shakllanishining yoshga doir psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Suitsid jahon miqyosida jiddiy sog'liq muommosi hisoblanib, turli yosh guruhlarida boshqacha ko'rinishda aks etadi. Maqolada bolalikdan tortib kattalar va qariyalarga qadar har bir yosh davrida o'ziga xos psixologik omillar ko'rib chiqiladi. Bolalikda ruhiy salomatlik, oilaviy muhit va travmalar roli tahlil qilinadi. O'smirlik davrida garmonal o'zgarishlar, ijtimoiy bosimlar o'z joniga qasd qilish g'oyalarini keltirib chiqarishi mumkin. Yoshlar va o'rta yoshdagi odamlar orasida o'zaro aloqa, moliyaviy muommolar va ruhiy kasalliklarning o'zaro ta'siri ko'rsatib o'tiladi. Keksalikda jismoniy kasalliklar, yolg'izlik va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar keksalardagi suitsid qurbonlari soning ortishiga olib kelishi mumkin.*

Аннотация: *В данной статье анализируются возрастные психологические особенности формирования суицидального поведения. Суицид считается серьезной проблемой здравоохранения во всем мире и проявляется в разных формах в разных возрастных группах. В статье рассматриваются специфические психологические факторы в каждом возрастном периоде: от детства до взрослых и пожилых людей. Анализируется роль детского психического здоровья, семейного окружения и травмы. В подростковом возрасте гормональные изменения и социальное давление могут вызвать мысли о самоубийстве. Отношения, финансовые проблемы и психические заболевания взаимосвязаны среди людей молодого и среднего возраста. Такие факторы, как соматические заболевания, одиночество и социальная изоляция в пожилом возрасте, могут привести к увеличению числа суицидов среди пожилых людей.*

Annotation: *This article analyzes the age-related psychological characteristics of the formation of suicidal behavior. Suicide is considered a major health problem worldwide and manifests itself in different forms in different age groups. The article examines specific psychological factors in each age period: from childhood to adults and the elderly. The role of children's mental health, family environment and trauma is analyzed. During adolescence, hormonal changes and social pressure can trigger suicidal thoughts. Relationships, financial problems and mental illness are interconnected among young and middle-aged people. Factors such as medical illness, loneliness and social isolation in old age can lead to an increase in suicide rates among older people.*

Kalit so'zlar: *Psixologik omillar, suitsidal xulq-atvor, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, keksalik, ruhiy salomatlik, stress, depressiya, ijtimoiy bosim, jismoniy salomatlik, yolg'izlik, ijtimoiy izolyatsiya.*

Ключевые слова: *Психологические факторы, суицидальное поведение, детство, подростковый возраст, подростковый возраст, старость, психическое здоровье, стресс, депрессия, социальное давление, физическое здоровье, одиночество, социальная изоляция.*

Key words: *Psychological factors, suicidal behavior, childhood, adolescence, adolescence, old age, mental health, stress, depression, social pressure, physical health, loneliness, social isolation.*

KIRISH

(Introduction): Suitsidal xulq-atvor, ya'ni o'z-o'zini o'ldirishga oid xulq-atvor, zamonaviy jamiyatda dolzarb muammo hisoblanadi. Har yili butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar ushbu noxush holatga duch keladi, bu esa nafaqat individual hayotlarni, balki oilalar, jamiyatlar va davlatlar barqarorligini ham tahdid qilmoqda. Yoshga doir xususiyatlar bu murakkab holatni tushunishda muhim rol o'ynaydi, chunki yosh, ruhiy holat va atrof-muhit sharoitlari o'zaro bog'liq va bir-birini ta'sir etadi. O'smirlar va yoshlar orasida o'z-o'zini o'ldirishga oid xulq-atvorning ko'payishi, yangi avlodni o'z ichiga olgan muammolarni aniqlash va hal qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Yoshlarning stressga chiqa olish qobiliyati, emotsional barqarorligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va individual resurslari bu jarayonda muhim omillar sifatida qaraladi. Shuningdek, turli yosh guruhlaridagi insonlarda suitsidal fikrlar va harakatlarning shakllanishi va rivojlanishida psixologik, sotsiokultural va biologik faktorlarning ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Suitsid paydo bo'lishining yoshga doir psixologik xususiyatlari mavzusi murakkab va dolzarb masala bo'lib, har bir yosh davri o'zining maxsus ruhiy holatlari, hissiy muommolari va stress omillari bilan bog'liq.

Bolalik davri. Bolalik davrida suitsidal xulq-atvor nisbatan kam uchraydi, ammo bunday holatlar hali ham mavjud. Ushbu yoshda bolalar ko'proq impulsiv xulq-atvor ko'rsatishi mumkin, chunki ular o'z hissiyotlarini anglamay yoki ustidan chiqolmaydilar. Ularning psixologik holati ko'p jihatdan oilaviy sharoit, do'stlar bilan munosabatlar va maktab muhitiga bog'liq. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muammolarni hal qilish qobiliyatining pastligi, ba'zan bolalar o'z-o'zini yo'q qilish g'oyalariga duch kelishiga olib keladi.

Psixologik xususiyatlar:

- Emotsional qiynchiliklar: Bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalay olishmaydi va revertli xulq-atvor ko'rsatishlari mumkin.

- Ijtimoiy izolyatsiya: Do'stlari yoki uy sharoitidagi muammolar bo'lmasa, yakkalanish hissi kuchayishi mumkin.

- Travmatik tajribalar: Har qanday turdagi zo'ravonlik, qarindoshlarning o'limi yoki shikastlanishi bolalarning psixologik holatiga zarar yetkazishi mumkin. Bolalikda suitsid holatlari juda kam uchraydi, lekin bolalarda ichki stress, travma yoki oilaviy konfliktlar suitsidni keltirib chiqarishi mumkin.

O'smirlik davri. O'smirlik davri, ya'ni 12-18 yosh, suitsidal xulq-atvor shakllanishida juda nozik davr hisoblanadi. O'smirlar ko'pincha o'z-o'zini anglash va o'z identifikatsiyasini topish jarayonida ko'plab ijtimoiy va emotsional muammolar bilan duch kelishadi. O'smirlikda stress va emotsional quvvatsizlik bevosita o'z-o'zini o'ldirish g'oyalarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. O'smirlar, shuningdek, ijtimoiy bosim, oilaviy muammolar va do'stlar bilandek aloqalar o'rtasidagi muammolarni boshdan kechirishga moyil.

Psixologik xususiyatlar:

- Ijtimoiy aloqalar: Do'stlar va ijtimoiy muhit o'smirlarning hissiy holatiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu davrda o'smirlar iqtisodiy muommolar, do'stlar bilan munosabatlar va

o'z-o'zini kamsitish kabi omillar tufaayli ruhiy stressga ko'proq duchor bo'ladi.

- Hissiy jarohat: Kutilmagan shok yoki muvaffaqiyatsizliklar o'smirlar orasida o'z-o'zini o'ldirish alomatlarini oshirishi mumkin. Shuningdek bugungi kunda kuchayib borayotgan ijtimoiy tazyiqlar, masalan bulling (tahdid qilish) va ijtimoiy tarmoqlardan keltirilgan stress ham muhim rol o'ynaydi.

- O'zini-o'zi baholash muammolari: Past o'zini baholash va o'z qadr-qimmatidan norozi bo'lish holatlari o'z-o'zini o'ldirishga olib kelishi mumkin.

O'spirinlik davri. O'spirinlik davri, 19-25 yoshgacha, odatda ko'proq mustaqil hayot yo'lini boshlaydigan davrdir. Biroq, o'z-o'zini o'ldirish g'oyalari bu davrda yanada ko'proq uchraydi, chunki yoshlar ko'pincha kelajakdagi maqsadlar va o'z-o'zini ifoda etish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu davrda mustaqillika o'tish, ish bilan ta'minlanish, shaxsiy munosabatlar va hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu davrda ruhiy salomatlikka qaratilgan e'tibor, shuningdek, ijtimoiy aloqalar va romantik munosabatlar o'z-o'zini o'ldirish xulq-atvorini shakllanishida katta ahamiyatga ega.

Psixologik xususiyatlar:

- Stress va depressiya: Maktabdan keyingi hayotda ko'proq stress va noaniqliklar, depressiyaga olib kelishi mumkin. Yangi joylarga moslashish, ish topishdagi qiyinchiliklar, moliyaviy xavotirlar, jamoa bilan munosabatlar va hissiy muommolar kabi omillar ularni yanada tushkun holatlarga olib kelishi mumkin.

- Romantik aloqalar: Do'stona, ishqiy munosabatlar yoki ajralishlar o'spirinlarning hissiy holatiga tubdan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Psixik kasalliklar: O'spirinlar orasida depressiya, ichkilik va giyohvand moddalar bilan bog'liq muammolar ko'payishi aniqlangan.

Keksalik davri. Qariyalik davrida o'z-o'zini o'ldirish xulq-atvori alohida e'tiborga sazovor bo'lishi kerak. O'z hayotini tugatmoqchi bo'lgan qariyalar ko'pincha izolyatsiya va ma'naviy bo'shliq, sog'lik muammolari va ruhiy kasalliklar bilan yuzma-yuz kelishadi. Qariyalar, shuningdek, o'z yaqinlarini yo'qotishdan, hissiy yuksalishdan va hayotidagi o'zgarishlardan aziyat chekishi mumkin.

Psixologik xususiyatlar:

- Izolyatsiya: Yakkalanish, oila a'zolarining yo'qolishi yoki ijtimoiy aloqa yetishmovchiligi qariyalarda depressiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

- Sog'liq bilan bog'liq muammolar: Jismoniy sog'liq muammolari, surunkali, og'riqli kasallik va omon qolish qobiliyatining yo'qolishi o'z-o'zini o'ldirish g'oyalarini kuchaytirishi mumkin.

- Hayotdan norozi bo'lish: Qariyalar o'z og'riqlari va muammolaridan qochish uchun o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lishadi.

Xulosa va takliflar. Suitsidal xulq-atvor shakllanishining yoshga doir psixologik xususiyatlari har bir davrda farq qiladi. Bolalik, o'smirlik, o'spirinlik va qariyalik davrlari o'z ichiga olgan muammolarni tushunish va farqlash, samarali profilaktika va yordam ko'rsatish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini o'ldirish xulq-atvorini kamaytirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik yordam va oilaviy aloqalarni kuchaytirishda tavsiyalar berish juda muhimdir. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar, yoshga doir psixologik xususiyatlar o'z-

o'zini o'ldirish xulq-atvorini tushunish uchun zarur bo'lgan omillar ekanligini ko'rsatadi. Bolalar, o'smirlar va o'spinlar bilan muntazam ravishda muloqot qilish, har bir yosh davrida psixologik yordam ko'rsatish va ota-onalar shuningdek o'qituvchilarga bolalar va o'smirlar orasida suitsid g'oyalarini qanday aniqlash, ularga yordam berish haqida psixologlar tomonidan treninglar o'tkazish muhimdir. O'z-o'zini o'ldirishni oldini olish uchun samarali dasturlar ishlab chiqish va joriy etish, shu jumladan keng qamrovli bilim berish, va oila, jamoatni birlashtirib ijtimoiy ma'suliyatni oshirish, muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish lozim. Suitsidni erta aniqlash va oldini olish strategiyalari ushbu muommo bilan kurashishda muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh guruhida o'z vaqtida muammolarni aniqlash va ularga javob berish orqali biz hayotni saqlab qolish va yaxshilashga yordam beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brent, D. A., & Melhem, N. M. Suicide and suicidal behavior in children and adolescents. In F. C. Verduin, & J. G. O'Connor (Eds.), *Child and Adolescent Psychiatry: A Comprehensive Textbook*. Lippincott . Williams & Wilkins (2008) 825-836-betlar
2. Joiner, T. E. *Why People Die by Suicide*. Cambridge, MA: Harvard University Press. (2005) 1-30-betlar
3. Miller, I., & NCCMH. *Suicide prevention: A health system approach*. Washington, DC: National Academy of Sciences. (2015) 45-70-betlar
4. Nock, M. K., & Kuhlberg, J. Suicidal behavior: A global perspective. In J. M. D. G. M. J. Cavanagh, & D. B. Clum (Eds.), *The Oxford Handbook of Suicide and Self-Injury* (265-282 betlar). New York, NY: Oxford University Press. (2010) 265-282- betlar.
5. World Health Organization. *Preventing suicide: A global imperative*. Geneva: World Health Organization. (2014) 10-20-betlar.